




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

TOSHKENT VILOYATI UYG'UR SHEVALARINING AYRIM LEKSIK
XUSUSIYATLARI

SOME LEXICAL FEATURES OF THE UYGHUR DIALECTS SPOKEN IN THE
TASHKENT REGION

Mohinabonu YUNUSOVA,
TOSHDOTAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TUZH9090

Annotation. *This article examines the lexical layer of the Uyghur dialects spoken in the territory of Tashkent regions, the factors influencing their formation, and their linguistic interactions with the Uzbek language. The lexical and ethnolinguistic features of Uyghur dialects are analyzed on the basis of audio materials recorded from respondents, revealing the long-standing historical and linguistic connections between the Uzbek and Uyghur languages through lexemes related to national dishes, beverages, and everyday life. In particular, the semantic, etymological, and phonetic features of such lexical units as tamaq, honan, güş nan, sanza, Ətkančaj, and saj are comparatively analyzed. The study also identifies pronunciation changes that emerged under the phonetic influence of the Uzbek language in the speech of Uyghurs living in the Tashkent region.*

Key words: *Eastern Turkestan, Altaic Languages language family, interference phenomena, tamaq, honan, güş nan, sanza, Ətkančaj, saj, synharmonism, agglutinative language structure.*

Zamonaviy turkiy tilshunoslikda qardosh tillar va ularning hududiy variantlarini qiyosiy jihatdan o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bir genealogik guruhga mansub bo'lgan tillar o'rtasidagi fonetik, morfologik, leksik va dialektologik umumiyliklar hamda farqlarni aniqlash til taraqqiyoti qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va uyg'ur tillarining qiyosiy tadqiqi turkiy tillar tizimida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va uyg'ur tillari turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub bo'lib, tarixan umumiy yozma til – qadimgi va o'rta asrlarda keng qo'llangan turk tili negizida shakllangan. Bu holat mazkur tillar o'rtasida sezilarli darajadagi strukturaviy va leksik o'xshashliklarning mavjudligini ta'minlagan. Biroq tarixiy-siyosiy omillar, hududiy ajralish, turli tillar bilan aloqadorlik darajasi va ichki til taraqqiyoti natijasida o'zbek va uyg'ur tillari mustaqil adabiy tillar sifatida rivojlanib, bir qator farqlovchi xususiyatlarni ham kasb etgan.

Bugungi kunda o'zbek va uyg'ur tillarining alohida fonetika, leksika va grammatikasi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning shevalari qiyosiy o'rganilishi yetarli darajada tizimli va kompleks tarzda amalga oshirilmagan. Aksariyat ilmiy ishlar umumiy tipologik yoki genealogik tavsif bilan cheklanib, dialektologik materiallar asosida chuqur qiyosiy tahlil olib borilmaganini ko'rsatadi. Bu ikki tilning tarixiy ildizlari bir bo'lib, davrlarga ko'ra Qadimgi turkiy tili, Eski o'zbek tili, Chig'atoy tili yoki Sharqiy turkcha [J. Eckmann. Thomas A. Sebeok. 1966:6] (Chig'atoy turkchasi [J. Eckmann. Thomas A. Sebeok. 1966:4] Türkçä til [P. Bergne, 2007: 137]) kabi nomlar bilan atalgan. Bu ikki tilga oid tadqiqotlar eng dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari (1071–72), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asarlari bilan boshlangan. Bu asarlar aynan turkey tilda yozilgani bois, o'zbek va uyg'ur tillariga taalluqli va juda muhim manba hisoblanadi.

Uyg'ur tili boshqa ko'plab turkiy tillar singari unli tovushlar uyg'unligi (singarmonizm) va agglutinatativ tuzilishga ega. Til tizimida grammatik jins kategoriyasi mavjud emas. Uyg'ur tili turkiy tillar oilasining uyg'ur, ya'ni janubi-sharqiy guruhiga kiradi. Mazkur guruh ayrim



nazariyalarga ko'ra, Oltoy til oilasining tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi. Uyg'ur tiliga eng yaqin tillar sifatida o'zbek va turk tillari, shuningdek, ayniy tili qayd etiladi. O'zbekiston hududida yashovchi uyg'ur aholisi etnik va lingvistik jihatdan murakkab tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan. Ularning asosiy qismi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston hududlaridan turli ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib kelgan. Mazkur migratsion jarayonlar uyg'ur tilining hududiy variantlari shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 50000 ga yaqin uyg'ur millati vakillari ro'yxatga olingan bo'lib, ular umumiy aholining 1% dan ham ozroq qismini tashkil etadi [Internet manbalari]. XX asrning birinchi yarmida olib borilgan ayrim lingvistik izlanishlarda Markaziy Osiyodagi uyg'ur aholisining nutqi qayd etilgan bo'lsa-da, bu materiallar mustaqil dialektologik tadqiqot sifatida emas, balki umumiy kuzatuvlar shaklida taqdim etilgan. Keyingi bosqichlarda, xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uyg'ur tilining hududiy variantlariga bo'lgan ilmiy qiziqish kuchaya boshladi. Bu davr tadqiqotlarida O'zbekiston hududidagi uyg'ur nutqining ayrim fonetik xususiyatlari, leksik qatlamidagi o'zgarishlar va o'zbek tili bilan bog'liq interferensiya hodisalari qayd etildi. Jumladan, o'zbek-uyg'ur tillari o'rtasidagi munosabatlar, xususan, ularning bir-biriga ko'rsatgan lingvistik ta'sirini uyg'ur tilshunosi, filologiya fanlari doktori G'.S. Sadvaqasov Farg'ona vodiysida yashovchi uyg'urlar shevalari misolida tadqiq qiladi. Olimning 1976-yili Alma-atada chop etilgan “Язык уйгуров Ферганской долины” asari nafaqat uyg'ur tilshunosligi, uyg'ur dialektologiyasi uchungina, balki o'zbek dialektologiyasi uchun ham alohida ahamiyatga egadir. Muallif o'z asarida 60- yillargacha mutlaqo o'rganilmagan Farg'ona vodiysidagi uyg'urlar shevasini birinchi marta sinxronik, qiyosiy usullardan foydalangan holda o'rgangan, tahlil etgan. Bu o'rinda shu narsa ahamiyatga molikki, F.S. Sadvakasov boshqa ba'zi bir dialektologlar singari tekshirilayotgan shevaning faqat o'ziga xos xususiyatlarini, uning adabiy til normalaridan farqli tomonlarinigina o'rganmagan, balki uni barcha sistemasi bo'yicha tavsif etgan. Natijada, Farg'ona vodiysidagi uyg'urlar shevasining uyg'ur adabiy tilida mavjud bo'lgan va mavjud bo'lmagan leksik hamda grammatik xususiyatlari asarda to'laligicha ifodasini topgan. Muallif Farg'ona vodiysidagi uyg'urlar shevasining vujudga kelish sabablarini, uning uyg'ur dialektlari tasnifiy sistemasida tutgan o'rnini hamda uyg'ur adabiy tiliga munosabatini qisqa, lekin aniq yoritib berishga muvaffaq bo'lgan. Bundan tashqari, tilshunoslar K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, V. V. Reshetovlar ham o'zbek va uyg'ur xalqlari tillaridagi yaqinlik haqida bir qator asarlarida fikr yuritganlar. 1970-yilgi izlanishlar natijasida N.A. Baskakov, A.T. Kaydarov, G. Sadvakasov, T. Talipovlar tomonidan “Исследования по уйгурскому языку” to'plami nashr etilgan. Mazkur to'plamga zamonaviy uyg'ur tili bilan bir qatorda qadimgi uyg'ur tilini tadqiq etishga oid yangi materiallar kiritilgan. To'plam ikki qismdan iborat. Birinchi qismda 1966-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan, uyg'urshunoslik fanining asosiy muammolarini muhokama qilishga bag'ishlangan sovet va xorijiy olimlarning ma'ruza hamda chiqishlari jamlangan. To'plamning ikkinchi qismida esa uyg'ur va boshqa turkiy tillar o'rtasidagi til aloqalari masalalari, shuningdek, uyg'urlar tilidagi fonetika, leksika va so'z yasashiga oid turli hodisalar bo'yicha ilmiy maqolalar o'rin olgan. Ammo uyg'ur shevalarining ichki farqlanishi hamda adabiy uyg'ur tili va o'zbek shevalari bilan qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Uyg'urlarning qadimda yashash hududidan Buyuk Ipak Yo'li o'tganligi bois, choy bu xalqda alohida qadrlangan. Ayniqsa, “Otkanchaj” deb nomlanuvchi, sut bilan qora choyni aralashtirib tayyorlanadigan choy turi uyg'ur xalqlarining milliy choyi hisoblanadi. Uyg'urlarda Otkanchaj (etkenchay) eng keng tarqalgan ichimlik bo'lib, qadimdan mashhur bo'lgan. Bu ichimlik uyg'urlarning “tashrif qog'ozi” hisoblanadi. Mahalliy aholi bu ichimlikni “Oq choy” deb ham atashadi. Bu choy sutli sho'r choy sifatida unga qo'shilgan masalliqlar tufayli yengil taom o'rnini ham bosgan. Otkanchaj tayyorlanishiga ko'ra, uning tarkibiga dastlab suv qaynatib olinib, unga birma-bir nisbatda sut, jizza, tuz, ozroq murch va qaymoq yoki sariyog' qo'shilgan. To'ylar va marosimlardan oldin oqsoqollar uni tuzini totib berganlar, shundan so'nggina taom dasturxonga tortilgan. Otkanchaj ga qora yoki ko'k choy qo'shilgan. Toshkent viloyati uyg'urlari esa asosan

qora choy qo‘shishni xush ko‘radilar. Etkenchaj udumi ayni vaqtda Andijonning Paynob qishlog‘ida, Toshkent, Toshkent viloyati uyg‘ur oilalarida tayyorlanadi xolos. Chunki bu yerda Qashqardan ko‘chib kelganlar soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Paynob qishlog‘i to‘ylarida xatmi qur‘on o‘qilishidan oldin Etkenchaj tortiq qilish ommalashgan. Etkenchaj ayollarning “soqit” marosimida ham tanovul qilingan. Keyin barchaga Etkenchaj umumiy osh ulashilgan. Xalq orasida “Etkenchaj ichmasak boshimiz og‘riydi” degan naql yurishi bejiz emas. Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi uyg‘urlar esa bu so‘zni “atkanchoy “ deb, o‘zbek tilidagidek “a” unlisini “o” ga aylantirib talaffuz qilishadi. Taom tayyorlashning birinchi bosqichida-barcha ovqatlarda zirvak tayyorlansa, bu jarayonni uyg‘urlar “say “ deb atashadi. “Güşaj”- asosan, go‘shtdan tayyorlanadigan, sabzavotlar qo‘shib dimlab qo‘yish orqali tez tayyor bo‘ladigan taom turi bo‘lib, bu taom o‘zbek xalqi orasida ham mashhur. Izlanishlar orqali shu ma’lum bo‘ldiki, Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, “Uyg‘ur” mahallasida istiqomat qiluvchi o‘zbek xonadonlari vakillari ham lag‘mon, guruch va qaylali taomlar tayyorlash jarayonida zirvakni “saj” deb atashadi. Xamirli taomlar uyg‘ur va o‘zbek oshxonasida keng tarqalgan. Xamirli taomlar o‘rtasida o‘zaro ta’sirlar ko‘plab o‘zbekcha so‘zlar orqali ko‘rinadi.

Dialektologik tadqiqotlar, ayniqsa Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyati o‘zbek shevalarida, taomlarga oid uyg‘ur leksik elementlarining nisbatan yuqori ulushini aniqlaydi. Bu holat tarixiy jihatdan uyg‘urlar va o‘zbeklarning ushbu hududda uzoq vaqt yonma-yon yashaganligi, muntazam iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lganligi bilan izohlanadi. Natijada ayrim taom nomlari o‘zbek shevalarida fonetik jihatdan moslashgan bo‘lsa-da, ularning semantik yadrosi uyg‘ur tilidagi shaklga juda yaqin bo‘lib qolgan.

Shuni ham ta’kidlash joizki, o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi taom nomlari umumiy qatlamining shakllanishida oddiy o‘zlashmadan ko‘ra tarixiy substrat omili muhimroq rol o‘ynagan. Ya’ni, bu leksemalar tilga tashqi manbadan kirib kelgan yangi birliklar emas, balki tarixan umumiy bo‘lgan madaniy va til muhitida shakllangan va keyinchalik har ikki til tizimida mustahkam o‘rnashib qolgan birliklardir.

Taomlar bilan bog‘liq leksemalarning yana bir muhim xususiyati – ularning marosimiy va madaniy funksiyasidir. O‘zbek va uyg‘ur tillarida to‘y, hayit va boshqa ijtimoiy marosimlar bilan bog‘liq taom nomlari ham ko‘p jihatdan umumiydir. Masalan, to‘y va mehmondorchilik bilan bog‘liq maqol va iboralarda uchraydigan ayrim taom nomlari ikki tilda ham bir xil semantik yuklamaga ega bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodida faol qo‘llanadi. Bu holat taom nomlarining faqat nominativ vazifa bilan cheklanmasdan, madaniy birlik sifatida ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Madaniy birlik haqida gap ketganda, uyg‘urlar qadriyatlaridan biri bo‘lgan mashrab, o‘ttizo‘g‘il kechalari haqida ma’lumot berib o‘tish joiz deb topdik. Mashrab (mäshrāp) uyg‘ur xalqining an’anaviy ijtimoiy-madaniy instituti [Dergipark] bo‘lib, u musiqa, raqs, og‘zaki ijod va axloqiy nazorat elementlarini o‘zida mujassam etgan jamoaviy yig‘in shaklidir. Mashrablar qadimdan kuz-qish mavsumida, to‘y, sunnat, hosil bayramlari paytida o‘tkazilgan. Ushbu yig‘inlarning ichki tuzilmasida “ottuz oghul” tizimi muhim o‘rin tutadi, ya’ni har bir mashrab odatda 30 nafar ishtirokchidan iborat bo‘lib, ular ierarxik tartibda joylashadi. Mazkur tizim uyg‘ur jamiyatida yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy nazoratni ta’minlash hamda madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish vositasi sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda mashrab (uyg‘. مەشرەپ / mäshrāp) an’anasi uyg‘ur diasporasi orasida o‘zining muayyan transformatsiyaga uchragan shaklida davom etib kelmoqda. Xususan, Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani hududida yashovchi uyg‘urlar orasida mashrab yig‘inlari odatda oyda bir marotaba tashkil etiladi. Mazkur yig‘inlar ko‘proq yopiq xarakterga ega bo‘lib, unda asosan bir millat vakillari – uyg‘urlar ishtirok etadi.

Zamonaviy mashrablarning funksional yo‘nalishi an’anaviy shakllarga nisbatan qisman soddalashgan bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy ahamiyati saqlanib qolgan. Xususan, ushbu yig‘inlar: jamoa a’zolari o‘rtasida muloqot va birdamlikni mustahkamlash, kundalik hayotga oid ayrim ijtimoiy yoki maishiy masalalarni muhokama qilish, shuningdek, oddiy madaniy hordiq va ko‘ngil yozish maqsadida o‘tkaziladi.

Amaliy jihatdan, O‘rta Chirchiq tumani uyg‘urlari orasida mashrablar ko‘pincha erkaklar ishtirokida tashkil etilib, ularni o‘tkazish navbat asosida yo‘lga qo‘yilgan. Har bir yig‘in uchun zarur moddiy ta‘minot ishtirokchilar tomonidan o‘zaro mablag‘ yig‘ish (badal) orqali hal etiladi. Bu holat mashrabning nafaqat madaniy, balki o‘zaro yordam va hamjihatlik mexanizmi sifatida ham faoliyat yuritayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, uyg‘ur yoshlar muhitida “o‘ttizo‘g‘il” (yoki ottuz oghul) deb ataluvchi yig‘in shakli ham uchraydi. Mazkur an‘ana, asosan, yosh yigitlar ishtirokida kechadigan norasmiy uchrashuvlar majmuini anglatadi. Unda qatnashchilar: o‘zaro erkin suhbat qurish, kundalik mavzular yuzasidan fikr almashish, bo‘sh vaqtni birgalikda o‘tkazish kabi maqsadlarda yig‘iladilar. Funktsional jihatdan bu yig‘inlar o‘zbek jamiyatidagi an‘anaviy choyxona muhitidagi erkaklar suhbatlariga yaqin turadi, ya‘ni ular rasmiy marosimdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy-psixologik muloqot maydoni vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, mashrab va “o‘ttizo‘g‘il” yig‘inlari uyg‘ur diasporasi sharoitida milliy identifikatsiyani saqlash, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash hamda an‘anaviy qadriyatlarni zamonaviy sharoitga moslashtirishda muhim rol o‘ynayotgan ijtimoiy-madaniy institutlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A. A. O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu Lug‘otit Turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
3. Баскаков Н.А., Кайдаров А.Т., Садвакасов Г.С., Талипов Т. Исследования по уйгурскому языку. – М.: Наука, 1970.
4. Боровков А.К. Лексика среднеазиатских тюркских языков. – М.: Наука, 1963.
5. Мирзаев Т., Мусаев Қ. Туркий тиллар қиёсий лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1982.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.
7. Решетов В. В. Узбекский язык и его диалекты. – Ташкент: Фан, 1966.
8. Садвакасов Г.С. Язык уйгуров Ферганской долины. – Алма-Ата: Наука, 1976.
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, 2000–2005.
10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. – Тошкент, 2024.
11. Юдахин К.К. Узбекско-русский словарь. – М., 1959.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistondagi_uyg%CA%Bburlar.
2. <https://www.google.com/search> 3. <https://uz.wikipedia.org/wiki>